



**KENGASH YI‘G‘ILISHINING MAJLIS  
BAYONIDAN KO‘CHIRMA**

Toshkent sh.

№ 2026/10

2026 yil “ 05 ” iyun

**Ishtirok etganlar:**

Kengash a‘zolari:

U. Muxtorov (masofadan)  
M. Atadjanov (masofadan)  
Y. Aizup (masofadan)  
U. Axmedov (masofadan)  
M. Ansell (masofadan)  
S. Ayupova (masofadan)  
K. Mangold (masofadan)  
F. Tuinstra (masofadan)  
O. Ulyanova (masofadan)  
G. Chiladze (masofadan)

Korporativ maslahatchi

K. Alimov

**Taklif etilganlar:**

Boshqaruv raisi:

A. Akbarjonov

Boshqaruv a‘zolari:

A. Ergashev, A. Xakimov, U. Aminova,  
E. Goroxov, O. Ekler.

Bankning bosh ofisi rahbarlari va  
mutaxassislari:

D.Sadirov, D.kalanov, M.Tangishev,  
A.Islamov, M.Nabiev, D.Shamirzaev,  
J.Ismatov, Y.Vershilo, B. Sagdullaev.

Bank Kengashining 11 nafar a‘zosi videoaloqa dasturi orqali onlayn ishtirok etdi va Kengash yig‘ilishining kvorumi ta‘minlandi.

**Yig‘ilish kun tartibi:**

**1.** Bank Kengashi va Boshqaruvining 2025-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti hamda bankni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida.

2. Axborotni oshkor etish talablariga muvofiq 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti loyihasi to'g'risida.
3. "O'zsanoatqurilishbank" ATBning 2025-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy faoliyati auditori natijalari yuzasidan tashqi auditor xulosasi to'g'risida.
4. Bank faoliyatini 2026-yilda auditdan o'tkazish uchun tashqi auditorni tanlash va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng yuqori miqdorini belgilash to'g'risida.
5. 2025-yil yakunlari bo'yicha bank foydasini taqsimlash, aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdorini belgilash hamda Bank Kengashining har bitta mustaqil a'zosiga 2026–2027 korporativ yil (2026-yil 1-iyuldan 2027-yil 1-iyulgacha) uchun to'lanadigan mukofotning eng yuqori miqdorini belgilash yuzasidan tavsiyalar loyihasi to'g'risida.
6. Bank Boshqaruvi a'zolariga 2026–2027 korporativ yil uchun to'lanadigan mukofotning eng yuqori miqdorini belgilash yuzasidan tavsiyalar loyihasi to'g'risida.
7. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi Raisi va Boshqaruv a'zolarining vakolatlarini bir yil muddatga tasdiqlash to'g'risida.
8. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Ustaviga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlarni ko'rib chiqish hamda tasdiqlash to'g'risida.
9. 2025-yilda balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olingan aktivlarni undirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot to'g'risida.
10. "PricewaterhouseCoopers" MChJ tomonidan o'tkazilgan "O'zsanoatqurilishbank" ATB korporativ boshqaruv tizimining mustaqil xalqaro baholash natijalari yuzasidan hisoboti to'g'risida.
11. "O'zsanoatqurilishbank" ATB aksiyadorlarining 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi, vaqti va joyini, aksiyadorlar reyestrini shakllantirish sanasini, aksiyadorlar uchun e'lon matnini, ovoz berish byulletenining shakli va matnini, shuningdek aksiyadorlar hamda davlat vakillariga yillik umumiy yig'ilishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida taqdim etiladigan materiallar ro'yxati va to'plamini tasdiqlash to'g'risida.

---

---

## **QAROR QILDI:**

1. "Bank Kengashi va Boshqaruvining 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti hamda bankni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi hisobot ma'qullansin va aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi tasdig'iga kiritilsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berdi: 11 nafar a'zo, shu jumladan:

"yoqlab" – 11 ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q.

2. Axborotni oshkor etish talablariga muvofiq tayyorlangan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 2025-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti ma’qullansin va aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi tasdig‘iga kiritilsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berdi: 11 nafar a‘zo, shu jumladan:

“yoqlab” – 11 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

3. “PricewaterhouseCoopers” MChJning “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 2025-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy faoliyati auditi natijalari yuzasidan taqdim etilgan auditorlik xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berdi: 11 nafar a‘zo, shu jumladan:

“yoqlab” – 11 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

4. 2026-yil uchun yillik va yarim yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tashqi auditdan o‘tkazish, kovenantlarning to‘g‘ri hisoblanishi va ularga rioya etilganligini tekshirish bo‘yicha kelishilgan tartib-taomillarni amalga oshirish, shuningdek bankning xalqaro moliya institutlari bilan amaldagi bitimlari doirasida loyiha moliyaviy hisobotlari auditini o‘tkazish xizmatlarini xarid qilish yuzasidan Bank xarid komissiyasining 475120-sonli lot bo‘yicha qarori ma’qullansin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berdi: 11 nafar a‘zo, shu jumladan:

“yoqlab” – 11 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

5. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi tasdig‘iga kiritish uchun quyidagilar ma’qullansin:

- Bank Kengashining 2025-yil yakunlari bo‘yicha olingan foydani taqsimlash hamda hisobot yili natijalariga ko‘ra bank aksiyalari bo‘yicha dividendlar miqdorini belgilash yuzasidan tavsiyalari.

- Joriy yilning 1-yanvar holatiga bank aktivlari hajmi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo‘lib, bu Bank Kengashining mustaqil a‘zolariga mukofot pullarini eng yuqori miqdorda to‘lash imkonini beradi. Shu munosabat bilan:

- Mukofot va boshqa kompensatsiya to‘lovlari amalga oshirish bilan bog‘liq soliq majburiyatlari bank xarajatlari hisobidan qoplansin.

- Mukofot va kompensatsiya xarajatlari “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Kengashi a‘zolariga to‘lanadigan mukofotlar va kompensatsiyalar to‘g‘risidagi nizom” talablariga muvofiq amalga oshirilsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berdi: 11 nafar a‘zo, shu jumladan:

“yoqlab” – 11 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

6. 2026–2027 korporativ yil uchun Bank Boshqaruvi a‘zolariga to‘lanadigan mukofotning eng yuqori miqdorini belgilash bo‘yicha tavsiyalar ma’qullansin hamda bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi tasdig‘iga kiritilsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berdi: 11 nafar a'zo, shu jumladan:  
"yoqlab" – 11 ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q.

**7.** Bank Kengashining "O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi Raisi va Boshqaruv a'zolarining vakolatlarini 1 (bir) yil muddatga uzaytirish to'g'risidagi taklifi bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi muhokamasiga kiritilsin.

Ovoz berish natijalari:  
Ovoz berdi: 11 nafar a'zo, shu jumladan:  
"yoqlab" – 11 ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q.

**8.** "O'zbekiston sanoat-qurilish banki" aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlar ma'qullansin hamda bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi tasdig'iga kiritilsin.

Ovoz berish natijalari:  
Ovoz berdi: 11 nafar a'zo, shu jumladan:  
"yoqlab" – 11 ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q.

**9.** 2025-yilda balansdan tashqari hisobvaraqlarda aks ettirilgan aktivlarni undirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobot ma'qullansin. Mazkur hisobot bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilsin.

Ovoz berish natijalari:  
Ovoz berdi: 11 nafar a'zo, shu jumladan:  
"yoqlab" – 11 ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q.

**10.** "PricewaterhouseCoopers" MChJ tomonidan o'tkazilgan "O'zsanoatqurilishbank" ATB korporativ boshqaruv tizimining xalqaro baholash yakunlari bo'yicha hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin. Mazkur hisobot bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilsin.

Ovoz berish natijalari:  
Ovoz berdi: 11 nafar a'zo, shu jumladan:  
"yoqlab" – 11 ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q.

**11.** Bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi 2026-yil 30-iyun kuni Toshkent vaqti bilan soat 11:00 da masofaviy shaklda, elektron ovoz berish xizmati — evote.uz orqali chaqirilsin. Aksiyadorlar va ularning vakillarini ro'yxatdan o'tkazish Toshkent vaqti bilan soat 10:00 dan boshlansin.

11.1. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabarnomani yuborish uchun aksiyadorlar reyestrini shakllantirish sanasi etib 2026-yil 8-iyun belgilansin.

11.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun jamiyat aksiyadorlari reyestrini shakllantirish sanasi etib 2026-yil 24-iyun belgilansin.

11.3. Yig'ilish kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

1. Bank Kengashi va Boshqaruvining 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti hamda bankni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida.
2. Bankning 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash.

3. Bank foydasini taqsimlash hamda Bank Kengashining bir nafar mustaqil a'zosiga 2026–2027 korporativ yil uchun to'lanadigan mukofot va kompensatsiyalarning eng yuqori miqdorini belgilash.
4. Bank Boshqaruvi a'zolariga 2026–2027 korporativ yil uchun to'lanadigan mukofotning eng yuqori miqdorini belgilash.
5. “O'zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi Raisi va Boshqaruv a'zolarining vakolatlarini 1 (bir) yil muddatga tasdiqlash to'g'risida.
6. Tashqi auditorni tasdiqlash hamda uning bank faoliyatini 2026-yilda auditdan o'tkazish xizmatlari uchun to'lanadigan haqning eng yuqori miqdorini belgilash to'g'risida.
7. “O'zbekiston sanoat-qurilish banki” aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash to'g'risida.
8. Bankda 2025-yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimining mustaqil xalqaro baholash natijalari to'g'risidagi hisoboti.
9. “O'zsanoatqurilishbank” ATB bank guruhi korporativ boshqaruvi konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
10. 2025-yilda balansdan tashqari hisobvaraqlarda aks ettirilgan aktivlarni undirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hisoboti.

11.4. “O'zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi xabar matni tasdiqlansin.

11.5. “O'zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarining 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik umumiy yig'ilishida ovoz berish uchun byulleten shakli va matni tasdiqlansin.

11.6. Aksiyadorlar hamda davlat vakiliga yillik umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida taqdim etiladigan materiallar ro'yxati va to'plami tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berdi: 11 nafar a'zo, shu jumladan:

“yoqlab” – 11 ovoz, “qarshi” – yo'q, “betaraf” – yo'q.

Корпоративный Советник

К. АЛИМОВ

Секретарь

Д. Абдукадиров

Bayonnoma rasmiylashtirilgan sana: 2025-yil “ 08 ” iyun.